ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2025.5/1

www.ilmsarchashmalari.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/1-son (may 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

ham (ayrim viloyatlarni hisobga olmaganda) aza-motamda qora (qoraga yaqin ko‘k, jigarrang...) libos kiyilishi tarixdan ma’lum.

Qora so‘zidagi “yomonlik”, “kulfat”, “ko‘ngilsizlik” semalari xalq orasida qo‘llaniladigan “qora kun”, “qora kuch”, “ichi qora”, “qora kiymoq” kabi birliklarda ham mavjud. Qora so‘zining motam ma’nosini ifodalashi ham ushbu so‘z ma’no ko‘lamining vaqt o‘tgan sayin kengayib borib, hozirda qora so‘zining konotativ semantikasini qamrab olganligini aytish mumkin. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani nihoyasida (epilogda) bosh qahramonlardan biri Otabekning keyingi taqdiri haqida xabar bergan yozuvchi Yusufbek xojining Qanoatshohdan xat olganligi, xatda Otabekning rus bosqinchilari bilan bo‘lgan muxorabada shahid bo‘lganligini qayd etar ekan, romanni bunday yakunlaydi: “Shundan keyin Yusufbek xoji buni elga oshkor qilib osh berdi. O‘zbek oyim qora kiyib, aza ochdi” [2].

Ayrim hududlarda esa (masalan, vodiy hududlarida) ayollarning ko‘k matodan tikilgan ko‘ylak-lozim kiyishlari, shu rangda ro‘mol o‘rashlari urf bo‘lgan. Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanidan olingan quyidagi parchada “ko‘k kiymoq” metaforik birikmasidagi “ko‘k” rang motam ma’nosini ifolashga xizmat qiladi: “Bibisora egniga ko‘k kiyib, bir yil aza tutdi, keyin bir yildayoq qarib, munkayib qolgan qaynona, qaynotasi bilan rozi-rizolashib, xo‘jalik markaziga ko‘chib o‘tdi” [1].

Surxondaryo hududida ham ko‘k rang motam libosini anglatadi. Nikoh to‘ylarida kelin tushirgan qaynona tilidan kelinga qarab aytiladigan “Kelin salom”da ko‘k leksemasining bir o‘rinda “osmon” ma’nosidagi shakldoshi va boshqa o‘rinda “aza” ma’nosidagi konnotativ semasi yuzaga chiqqan: “Sen yashaydigan o‘tov – qora, osmon – ko‘k, dala-dasht –yashil, qozon-o‘chog‘ing – qora, soching – qora, ular ichida alohida ko‘zga tashlanib yurishing uchun qizil ko‘ylak kiydirdim, iloyo, sen ko‘k ko‘ylak kiyma, qoraga botma, qizamiqqa chalinma, yuzing ko‘ylagingdek qizil bo‘lib yursin”.

Oq rangi ayrim hududlarda motamni bildirsa, ayrim hududlarda azadorlar ta’ziya muddati tugagach, qora kiyimni oq kiyim bilan almashtirib, motam libosini tashlaydilar. “Oq kiydi” lingvokulturemasi ham aynan azadorlikni tugatishni bildiradi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida esa oq kiyim kiyish aza ochishni bildirgan: “...Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig‘ildi. Olacha to‘n kiygan kishilar, oppoq ko‘ylak kiyib, boshiga oq ro‘mol o‘ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko‘ksiga bosgancha xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘ladi”.

Ingliz xalqida ham motam libosi mavjud. Mourners (azadorlar) qora rangli liboslar kiyadilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, ikkala xalq tilida “motam” konsepti kishi vafotidan keyingi qayg‘u va shu munosabat bilan tashkil qilinadigan marosim semasini ifodalaydi. O‘zbek va ingliz tillarida motam marosimlari xususiyatlari har ikkala xalqda marhumga nisbatan hurmat, marhumning yaqinlariga nisbatan xayrixohlik, hamdardlik ko‘rsatilishini anglatadi va bu tillardagi lingvistik birliklar orqali ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Yoqubov Odil. Tanlangan asarlar. To‘rt jildli, 1-jild. Adolat manzili, roman, Toshkent, “Sharq”, 2005.

(2). Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар. Тошкент, “Шарқ”, 2009.

-(3). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020, 680-бет; 672-бет; 688-бет; 608-бет; 646-бет.

(4). https://dictionary.cambridge.org

Yuldashev Doniyor Taxirovich (UrDU professori v.b., filologiya fanlari doktori),
Pulatova Muhayyo Azimboyevna (UrDU tayanch doktoranti; muhayyo_pulatova@mail.ru)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI ATOQLI OTLARNING TARJIMA METODLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli tizimli tillarda atoqli otlarni tarjima qilish usullari, jumladan, atoqli otlar tarjimasida adekvatlikni ta’minlash yuzasidan qilingan tadqiqotlarini o‘rganish, ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli otlarni bir tildan ikkinchisiga o‘girish masalalari, bu jarayondagi qiyinchiliklar va yechim bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarjima metodlari kabi muhim jihatlariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: onomastika, nomlar, tarjima strategiyalari, transkripsiya, kalkalash, yarim kalkalash, neologizm, toponim, antroponim.*

СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА ИМЕН СОБСТВЕННЫХ НА АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется важным аспектам способов перевода прилагательных в разные систематические языки, включая исследования по обеспечению адекватности перевода прилагательных, вопросам перевода прилагательных в английском и узбек-*

ском языках с одного языка на другой, трудностям в этом процессе и методам перевода, которые могут стать решением.

Ключевые слова: *ономастика, имена, стратегии перевода, транскрипция, копирование, полукопирование, неологизм, топоним, антропоним.*

TRANSLATION METHODS OF PROPER NOUNS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article focuses on important aspects of the methods of translating proper nouns in different systematic languages, including a study of research conducted to ensure adequacy in the translation of proper nouns, the issues of translating proper nouns in English and Uzbek from one language to another, the difficulties in this process, and possible translation methods that can be a solution.*

Keywords: *onomastics, names, translation strategies, transcription, calque, semi-calque, neologism, toponym, anthroponym.*

Kirish. Onamastika – nomlarni o‘rganish sohasi ham bu jarayondan chetda qolib ketgani yo‘q. Atoqli otlar tarkibiga kiruvchi birliklar nafaqat identifikator, balki madaniy va ijtimoiy ma’lumotlarning tashuvchisi ham hisoblanadi. Ularni moslashtirish va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida noto‘g‘ri talqin qilish potensiali tufayli atoqli otda aks etgan madaniy ma’nolar ham ma’lum darajada yoki butunlay yo‘qolib ketishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli tarjimashunos Qudrat Musayev takidlaganidek, “muallif tomonidan foydalanilgan har bir bayon va tafsilot, har qanday so‘z va ibora asosiy go‘yaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi, badiy-tasviriy vositalarning to‘la-to‘kis idrok etilishi va tarjimada ijodiy qayta yaratilishigina muloqot maqsadiga erishish imkoniyatini yaratadi” [1;4-b.]. Xususan, bugungi kunda muayyan bir tildagi onomastik birliklarning ikkinchi bir tildagi ifodasi masalasi barcha tarjimonlar duch keladigan dolzarb muommolardan hisoblanadi. Jumladan, “atqoli otlar tarjima qilinishi kerakmi yoki qanday bo‘lsa shunday aytilaverishi kerakmi?” degan savol ko‘pgina til o‘rganuvchilarni qiynab keladi. O‘tkazilgan bir qancha tadqiqotlarda bu masala – tarjima qilish yoki qilmaslik masalasi ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, haqiqiy matn (asliyat) hamda tarjima qilingan matn ikkalasi solishtirilganda, aksariyat atoqli otlarning bir tilidan ikkinchi tilga tarjima qilinmaganligini ko‘rish mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har qanday tarjimon atoqli otlarning o‘ziga xosliklarini to‘g‘ri his qilib, ularni tushunish va yuqori sifatli tarjima qilish uchun yetarlicha tajriba hamda mahoratga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar deyiladi [2; 114-b.]. Ingliz tilidagi mashhur elektron lug‘atlarni ko‘zdan kechirganimizda, “atoqli otlarga ma’lum bir turdagi shaxs, joy, narsa va tashkilotlarni bir-biridan ajratish uchun atab qo‘yilgan va bosh harflar bilan yoziladigan otlar kirishi” haqida ma’lumotlar berilgan [12;13;14;15].

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyo tarjimashunosligida tarjima paytida ba’zi to‘siqlarga duch kelganda tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan bir qancha strategiyalar mavjud. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan iboralar tarjima strategiyasi, argo va og‘zaki nutq tarjima strategiyasi, madaniy atamalar tarjima strategiyasi, metafora tarjima strategiyasi yuzasidan olib borilgan ishlarni uchratishimiz mumkin [4;5;6;7]. Ammo ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning chog‘ishtirma miqyosda o‘rganilishi va tarjimasiga aloqador ishlar nisbatan kamroq. O‘zbek tilshunosligida esa *tarjima strategiyalari* termini bilan bir qatorda, *tarjima metodlari* nomi ostida olib borilgan ishlar ham ko‘p uchraydi. Shu o‘rinda strategiya atamasiga berilgan izohga e’tibor qaratamiz. Mashhur ingliz “Cambridge lug‘ati”ga ko‘ra, “(a way of doing something or dealing with something) biror narsani qilish usuli, yo‘l-yo‘rig‘i strategiya” deb ataladi [el. lug‘]. Ingliz tili adabiyotlarida *strategy* so‘ziga sinonim holatda *procedure*, *technique*, *method*, *tactic*, *approach* so‘zlarining qo‘llanilganini kuzatishimiz mumkin. Demak, strategiyalar deganda tarjimonning tarjima jarayonida duch keladigan muammolarni hal qilish vositalari, yo‘l-yo‘riq va usullarini tushunishimiz mumkin.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida ko‘pgina tarjima metodlari o‘rganib chiqildi hamda aynan atoqli otga tegishli bo‘lgan metodlar tanlab olindi. Metod (yun. *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli, degan ma’noni anglatadi [3;209-b.]. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va sifatli bajara oladi. Tarjimada ham xuddi shunday: atoqli otlarni tarjima qilishda metod va usullari bilan tanish bo‘lmagan inson bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt hamda kuch sarflaydi. Onomastik birliklarni manba tilidan tarjima tiliga ogirishning asosiy usullari, xususan, quyidagilar sanaladi.

Transliteratsiya – bu metod atoqli otlarni tarjima qilishda ko‘p ishlatiladigan metodlardani biri bo‘lib, bunda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda tarjima qilinayotgan tilning harflaridan foydalaniladi

va manba tilning talaffuz qoidalariga amal qiladi yoki moslashtiriladi. Transliteratsiya ba'zan fonetik tarjima deb ham ishlatiladi [9;28-b.] va so'zning grafik jihatini hisobga olganligi uchun juda qulay hisoblanadi. Masalan, *Hamlet* antroponimi o'zbek tiliga 2 xil shaklda tarjima qilingan – *Gamlet* va *Hamlet*. Taniqli tarjimashunos I.G'ofurovning yozishicha, *Hamlet* shakli o'zbek tili qonun-qoidalariga yaqin bo'lishi bilan birga, talaffuzi ingliz tilidagi so'zga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazkur so'zni transliteratsiyada beradigan bo'lsak, u *Hemlit* shakliga ega bo'ladi. Bu yuqoridagi talablarga javob bermaydi. Ba'zan ayni bir ism bir necha usulda berishni talab qiladi. Bu, aksariyat hollarda, matnning usuli va janriga bevosita bog'liq, albatta. Bundan tashqari, tasvirlanayotgan voqea yoki hodisa qaysi davrda va qaysi mamlakatda yuz berayotgani tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi. Bu fikrlarga misol tariqasida *Samarqand* toponimini olishimiz mumkin. Ingliz tiliga bu nom *Samarqand* hamda *Samarkand* shaklida transliteratsiya qilinishi mumkin. Birinchi usulda transliteratsiya qilingan so'z, aksariyat hollarda, tarixiy matnlarda qo'llanilsa, ikkinchi usulga zamonaviy matnlarda duch kelinadi va olimlar bu shakl rus tili ta'sirida paydo bo'lganini ham aytishadi. Yana bir misol, *Isaac* antroponimi o'zbek tilimizda diniy, ilmiy va badiiy matnlarda *Isak, Ayzek, Isoq, Is'hoq* kabi shakllarda berilgan [5;119-b.].

Transliteratsiyaga yana *Farg'ona – Fergana* yoki *Farghana* (*Ferghana* emas), *London – London, Steve – Stiv, Facebook – Feysbuk, Micheal – Maykl, John – Jon, Johny – Joni, William – Uillyam, Maria – Mariya, George – Jorj, David – Devid* kabi misollarni ham ko'rsatishimiz mumkin.

Shu o'rinda shuni ham aytish joizki, ba'zi hollarda atoqli otlarni transliteratsiya usilida tarjima qilish jarayonida o'quvchiga qo'shimcha ma'lumot-izoh bergan holda tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Masalan, "*The New York Times*" va "*The Daily Express*" gazeta nomlarini olsak. Ular mashhur gazetalar, lekin o'quvchida ular haqida ma'lumot bo'lmasligi mumkin. Ularni qanday maqsadda va kimlar uchunligiga ko'ra, AQSHning milliy gazetasi "*Nyu York Tayms*" va ingliz konservatorlar gazetasi "*Deyli Ekspress*" deb tarjima qilish to'g'ri bo'lish holatlari ham mavjud [5;121-b.].

Transkripsiya. Har qanday tovushni ifodalab bera oladigan lotin tili grafikasi asosida yaratilgan, xalqaro qabul qilingan belgilar tizimi asosida milliy so'z va atamalarni ikkinchi bir tilda qayta tiklashga *transkripsiya* deb ataladi. Masalan, *Go'ro'g'li – Gōrōğlï* [6;49-b.].

Kalkalash. Bu metod ham atoqli otlarni tajima qilish jarayonida juda ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Kalka tarjima qilinayotgan atoqli otlarni so'zma-so'z tarjimasi hisoblanadi, ya'ni boshqa til lug'aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko'chiriladi [11;29-b.]. Kalkalash tarjima bilan so'z yasalishi oralig'ida turuvchi hodisa bo'lganligi uchun tilshunoslar uni qat'iy baholashga ikkilanadilar. Shuning uchun kalkalashning ikki tarkibiy turini: 1) to'liq kalka; 2) yarim kalkani farqlashadi. Masalan:

To'liq kalkalash – manba tilidagi atoqli ot qismlari to'liq tarjima tilidagi mos so'zlar bilan almashtiriladi: *White House – Oq uy, Your (Royal) Highness – Hazrati Oliylari, United Kingdom – Birlashgan qirollik, The Pacific Ocean – Tinch okeani, Royal Family – Qirollik Oilasi, European Union –Yevropa Ittifoqi...*

Yarim kalkalash – bu metodda tarjima qilinayotgan manbaning yarmi boshqa tilga tarjima qilinadi, qolgan yarmi esa o'z holicha qoladi [4;162-b.]. Masalan: *Mrs Jane – Jeyn xonim, King Charles – qirol Charles, Bloody Merry – qonxo'r Merri, Youth parliament – Yoshlar parliamenti, Grant Canyon – Katta Kanyon...*

Neologizm yaratish. Bu metod nafaqat tarjima uchun manfaatli, balki til lug'aviy boyligini boyitish uchun ham qo'l keladi. Sababi ushbu metod tarjima qilinadigan tilda ekvivalent bo'lmaganda qo'llaniladi. Masalan: *Tik Tok – Tik-Tok, Telegram – Telegram, Zoom – Zoom…*

Atoqli otlar tarjimasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, ularning orasida Moskvadagi Lomonosov universiteti professori Z.G.Proshinaning tarjima sohasidagi darsliklari ko'pchilik o'zbek tilshunoslari tomonidan ham yuqori baholanadi. Darhaqiqat, atoqli otlarning ham turlari ko'p: antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, tashkilot, kompaniya nomlari va boshqalar. Olima turli xil atoqli otlani har xil vaziyatlarda qanday maqsadda va kimlar uchun mo'ljallanganiga qarab turlicha tarjima qilish keraklini o'zining "Theory of translation" darsligida isbotlab bergan. Uning quyidagi fikrlarini toponimlar (geografik joy nomlari) tarjimasi jarayonida juda o'rinli deb hisoblaymiz: Toponimlar yoki geografik nomlar agar u manba tilga tegishli bo'lsa, transkripsiya yoki transliteratsiyadan foydalinishi kerak. Lekin u manba tiliga tegishli bo'lmasa, toponimlar qaysi tildan olingan bo'lsa, o'sha tildan tarjima qilinayotgan tilga tarjima qilish kerak [4;156-b.].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi qoidaga mos keluvchi misollarni hozir manba tili ingliz tili va tarjima tili o'zbek tili misollarida tahlil qilib ko'ramiz: Brasil –Brazil – Braziliya (ingliz tilidan o'zbek tiliga Brazil deb tarjima qilmaymiz); مصر –*Egypt – Misr* (Egyipt emas); *Warszaw – Warsaw – Varshava* (Vorshav emas); *Köln – Cologne – Koln* (Kologne emas); *München – Munich – Myunxen* (Munix emas). Kam ho-

latlarda yuqoridagi qoidaga mos kelmaydigan, o‘zbek tilimizga o‘tgan asrlarda boshqa tillar orqali kirib kelib, bugungi kunda keng ishlatilib kelinayotgan atoqli otlar ham uchrab turadi. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti bo‘lgan *Pekin* shahrining shevalarga boy xitoychada 北京 yoki 北平 kabi 2 xil talaffuzi ishlatilar ekan. Bu holat ingliz tilida, ko‘pincha, *Beijing* va kam hollarda *Peking* shaklidagi transliteratsiyalarning yaralishiga sabab bo‘lgan. Rus tiliga *Пекин* shaklida transliteratsiya qilingan va o‘zbek tilida ham *Pekin* shaklida ishlatiladi. Xitoy davlatining o‘zining nomi esa xitoychaga 中國 (talaffuzi Zhōngguó) eski ingliz tilida *Cathay* shaklida ishlatilgan (amaldagi ingliz tilida *China*), rus tilida *Китай* va ona tilimizda *Xitoy* shaklida ishlatilyapti. Bugungi kunda tarjimonlar ingliz va o‘zbek tillari orasida geografik joy nomlarini bildiruvchi toponimlar tarjima jarayonida tarjima metodlariga mos kelmaydigan, tilimizda asrlar davomida shakllanib, adabiy tilimizda me’yor darajasida singib ketgan so‘zlardan ham xabardor bo‘lishlari kerak. Biz bu kabi ma’lumotlarni hozirgi yuqori darajada rivojlangan axborot texnologiyalari asrida internet saytlari, bir qancha olimlarning dissertatsiyalaridan yoki boshqa turli manbalardan tarqoq holatda o‘rganib chiqishimiz mumkin.

Ba’zan nomlar aniqlagichlari bilan birga qo‘llaniladi. Bunday holda, ko‘pincha, yarim kalkalash, ya’ni, turdosh ot tarjima qilinadigan hamda atoqli ot o‘z holicha qoladigan holatlar ko‘p uchraydi: *Isle of Mann – Man oroli, the Amudarya river – Amudaryo daryosi, the lake Huran – Huran oroli, Mount Everest – Гора Эверест – Everest tog‘I, Tashkent city – Toshkent shahri, Times Square – Tayms maydoni, Wall Street – Uall ko‘chasi kabilar.*

Kam hollarda, ya’ni, okean, dengiz nomlari turdosh otdan paydo bo‘lgan va tarjima tilida ekvivalent nomi mavjud bo‘lsa, to‘liq kalkalashdan foydalaniladi: *the Mediterranean sea – O‘rtayer dengizi, the Pacific ocean – Tinch okeani* kabi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turli kontekstda onomastik birliklarni tarjima qilish va moslashtirish ularda aks etgan turli madaniy o‘ziga xoslik, ijtimoiy ma’no tufayli tarjimon va tilshunoslar uchun qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bilamizki, ko‘p hollarda, atoqli otlar tarjima qilinmaydi, moslashtiriladi, lekin tarjima turli tizimli tillararo ma’lum bir kontekstlarda qilinganda, atoqli otlarning ham tarjima qilinadi, deb aytish mumkin. Atoqli otni tarjima qilish tizimi va usuli to‘g‘ri o‘rganilmasa, muammo hal qilinmasdan qolib ketaveradi hamda tarjimashunoslik jarayonida jiddiy muommolar keltirib chiqaradi. Jumladan, atoqli otlarni tarjima qilishda qo‘llaniladigan turli usullar – transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, neologizm yaratish kabilarning har biri o‘zining kuchli tomonlari va ma’lum bir cheklovlariga ega, tillar bo‘ylab madaniy va semantik yaxlitlikni saqlash murakkabdir. Ammo bunday murakkabliklarga qaramay, amalga oshirish mumkin bo‘lgan samarali tarjima amaliyoti madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishi va turli millatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat-e’tiborning saqlanib qolishiga, hatto kuchayishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005.

(2). Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, “Akademnashr”, 2016.

(3). Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent, “Aloqachi”, 2008.

(4). Zoya Proshina. Theory of translation (english and russian) 3d edition. Vladivostok, Far Eastern University Press, 2008.

(5). G‘ofurov I. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.

(6). Jumaniyazov Z. Tarjimaning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, 2018.

(7). Saadia Mahmood ul-Hassan. Strategies of translating idioms. British Journal of Linguistics. Vol. 2, № 3, December, 2014.

(8). Gabriella Kovacas. About the definition, classification, and translation strategies of idioms. Acta Universitatis Sapientiae, Philologica, 8.3.2016.

(9). Ratna Prasasti Suminar. Translation strategies of American Teenager’s slang. Journal of Languages and Language teaching. July, 2024, Vol. 12, № 3.

(10). Qosimova N. Tarjima strategiyalari. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Process. Internarional scientific conference, Bukhara, December, p. 18–19, 2021.

(11). Sodiqova S.I. Antroponimlarni tarjima qilish va o‘zlashtirish muammolari. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies. Volume 3, Issue 17, October, 2023.

(12). https://www.merriam-webster.com/dictionary/proper%20noun

(13). https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/proper-noun

(14). https://www.dictionary.com/browse/proper%20noun

(15). https://www.ldoceonline.com/dictionary/proper-noun#google_vignette

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

FIZIKA-MATEMATIKA		
Alishev Abdumannon, Baxtiyorova Kamola	Ba'zi integro-differensial tenglamalar sistemasining asimptotik integrallash	**3**
Azimov Qaxramon, Rahimov Boyhuroz Shermuhammadovich	Sezgirlikni tahlil qilishning bir usuli haqida	**8**
Axmedov Nasriddin Baxodirovich	Elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqlarning xususiy chastotalari	**11**
Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich, Ergasheva Nilufar Mansurovna	Tovush tezligidan katta bo'lmagan tezlikda harakatlanuvchi nuqtaviy manbadan hosil bo'ladigan to'lqin xususiyatlari	**16**
Usarov Begzod O'ralovich	"To'rtburchaklar" usuli va uning xossalari	**24**
Nushtayeva Ozoda Xasilovna	O'z-o'zini tozalash funksiyasiga ega bo'lgan quyosh batareyasi yuzasining ifloslanish darajasini masofadan monitoring qilish uchun qurilma	**32**
Vaisova Moxira Davlatboyevna, Salayeva Rohila Rustamovna	$\mathbb{C}^2$ fazoda α-subgarmonik funksiyaning integral xossasi	**38**
FALSAFA		
Azimov Ulug'bek Abduxalilovich	Ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlarning roli	**44**
Shonazarov Jamshid Shuhratovich	Davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muaommolari va yechimlar	**47**
Joldasbayev Oralbay Yernazarovich	Berdaq ijtimoiy-falsafasiy qarashlarida tenglik va adolat kategoriyalarining tahlili	**50**
Ahmedov Farruh Nurmuhammad o'g'li	Yangi O'zbekiston yoshlarining g'oyaviy tarbiyasi	**53**
Rustamov Ramz Rizoqulovich	Jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yo'llari	**58**
Jamolov Davronbek Baxtiyor o'g'li	Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda ta'sir etuvchi omillar	**61**
Ochilov Sarvar Safayevich	Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhit	**64**
Utegenova Jamila Djolmurzayevna	Bioetika sohasini shakllantirish mexanizmlari	**68**
TILSHUNOSLIK		
Xidirova Maxfuza Amirqulovna	Yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining lingvostatistik va tematik tahlili	**71**
Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich	Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspekti	**76**
Irisovna Sayida Abdiyeva	Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni	**78**
ADABIYOTSHUNOSLIK		
Allashev Akbarbek Anvar o'g'li	Adabiyotda konflikt va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasidagi aloqadorlik	**81**
Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi	"Boburnoma" sujeti va tavsiflash prinsipi	**84**
Qarshibayeva Uljan Davirovna	Balzak asarlari qahramonlari taqdiriga ijtimoiy muhit ta'siri	**87**
Rakhimova Dilfuza Masharip qizi	Uilyam Golding asarlarini o'rganishning tamoyillari	**91**
Kenjayeva Umida, Oydinova Parizod	Adekvat topishmoqlar	**94**
JURNALISTIKA		
Egamnazarov Bobur	Jurnalistikada ixtisoslashuv va qurilish tematikasini yoritishdagi o'ziga xosliklar	**99**
Kallibekova Gulnara Palbekovna	Leksik birliklarni to'g'ri qo'llashda jurnalist mahorati	**101**

PEDAGOGIKA		
Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich	Talabalarni milliy kontent asosida o‘qitishning modeli	**106**
Toshpo‘latova Inobat Ulug‘bek qizi	Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	**109**
Abduraxmonava Muxayoxon Abduraximovna	Talabalarni o‘qitishda STEAM ta’limining qollanilishi	**111**
Axmedov Akmal Yusufovich	Kommunikativ kompetentlik bo‘lajak pedagog ijtimoiy va kasbiy faoliyati asosidir	**115**
Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna	Loyihaga asoslangan ta’lim metodining dars jarayonida qo‘llanilishi va bunda pedagogning roli	**118**
Abdullayeva Saida Malikovna	CBI yondashuvining chet tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	**120**
Xuramov Ilxom Panjiyevich	Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish	**125**
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari	**129**
Davletova Ullijon Sapavoy qizi	Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik rejasi tamoyillari	**132**
Urunova Shaxlo Rafikovna	Terminologik leksikani o‘qitishda zamonaviy interaktiv yondashuvlar	**135**
Nizamova Umida Sandjarovna	Nofilologik yonalishi talabalariga chet til o‘qitishda produktiv yondashuvning ahamiyati	**137**
Juginisova Juldiz Imnixashimovna, Asanova Uldawlet Sagindikovna, Saxanova Liza Jamixatovna	Masofaviy o‘qitishni tashkil etish va boshqarish	**140**
Shadiyeva Nigora Sharipovna	Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	**143**
Qutlimuratova Barno Xursandbekovna	Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan o‘zbek talabalari: korpus yordamida xatoliklar tahlili	**147**
Matniyazov Xasan Kamolovich	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatish va nazorat qilish	**150**
Каландаров Сардар Ибрагимович	Свободное обучение и сотрудничество: педагогическая система Селестена Френе	**153**
Айбергенова Айнура Рустемовна	Развитие навыков письменной речи у студентов-медиков при обучении РКИ	**156**
Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович	Типы медицинских текстов и их применение в обучении английскому языку будущих врачей	**159**
Hodiyeva Yulduz Yunusovna	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun SCAMPER texnologiyasidan foydalanish	**162**
Irbutaeva Nigora Dilshodovna, Makhmudova Asal Malikovna, Normamatova Maftuna Fozilovna	Studying Medical Terms by Non-Russian-Speaking Students in Russian Language Classes at Medical Universities	**165**
Xakimova Munira Xabibullayevna	Main Factors Which are Influenced on Reading Skills	**169**
Arslonbekovna Ra’no Arslonbekova	Transforming traditional teaching through ESP	**171**
ILMIY AXBOROT		
Hamrayeva Saida Ismailovna	“Ma’lumotlar intellektual tahlili” fani uchun CRISP-DM metodologiyasi	**175**
Madatov Xabibulla Axmedovich	Bazis so‘zlar bilan ishlovchi elektron tizim: lingvistik va texnologik qarashlar	**178**
Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich	Navro‘zning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanish bosqichlari	**181**
Maxsudova Xolisxon Ummatovna	Mashinasozlik terminologiyasining lingvistik tuzilishi va kontekstual foydalanish	**184**
Maxammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi	Ingliz va o‘zbek tillarida “motam” semantik maydonining o‘ziga xos xususiyatlari	**186**

Yuldashev Doniyor Taxirovich, Pulatova Muhayyo Azimboyevna	Ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning tarjima metodlari	**189**
Jurayeva Iroda Axmedovna	J.K.Roulingning “Garri Potter” asaridagi antroponimlarning milliy-lisoniy xususiyatlari	**193**
Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich	Qoraqalpoq tilida antonimik munosabatdagi fe‘l so‘z turkumining guruhlari	**196**
Qodirova Xurshida Marselovna	Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati natijalari va dolzarb vazifalar	**199**
Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi	“Smile/tabassum” tushunchalarining ingliz va o‘zbek tillarida jins va yosh omillari asosida ifodalanishining lingvistik tahlili	**202**
Karimova Munisa Yaxyoyevna, Imamov Navruz Pattaqulovich	O‘zbek va ingliz tillarida fe’lning chegaralanmaganlik xususiyati va harakat tarzi qiyosiy tahlili	**205**
Dlanova Palzira Gulimbetovna	Talabalarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari	**208**
Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich, Shomurotova Nigora Otabayevna	She’riy tarjimada milliy koloritning aks etishi	**211**
Каримова Ферузахон Иноятовна	Словообразование и анализ сложных слов английского и узбекского языков	**216**
Солиев Ибодуллохон Исматуллаевич	Механизмы внедрения институциональной автономии в ВУЗах узбекистана: опыт, проблемы и перспективы	**219**
Анварова Мафтунахон Дилмурод кизи	Эволюция концепта семьи в разных культурах	**221**
Саттарова Елена Анатольевна	Лингвистическое определение эвфемизмов в медицинской профессиональной речи	**224**
Qurbonbayeva Sojidabonu Muxtar kizi	Linguocultural Study of Proverbs in English and Uzbek Languages	**226**
Mirzayeva Gulnozakhon Ilkhamovna	A Comparative Analysis of Phraseological Units Depicting the Human Psyche in English and Uzbek	**229**
Polvanova Mahzuna Farxadovna	Analyzing the Grammatical Structure of Phraseologizms that Contain the Word “Money” in Both Uzbek and English	**231**
Rahmonova Gulhayo Khalilovna	The Peculiarities of Used Stylistic Devices in “The Portrait of the Artist as a Young Man” by James Joyce	**234**
Kodirova Dilrabo Shamsidinovna	Metonymic Transition of Words into Mining Terminology	**237**
Polvannazirova Sevara, Atajonova Zukhra	Navigating Linguistic and Cultural Complexities in Literary Translation: a Case Study of Utkir Hoshimov’s “Tarnov”	**241**